



XORAZM SHEVALARIDAGI FRAZEMALARNING SEMANTIK XUSUSIYATLARI

Jamalatdinova Laylo Ro‘ziboyevna

Urganch davlat universiteti tayanch doktoranti, Urganch, O‘zbekiston

E-mail: jamolatdinovalaylo@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada Xorazm viloyati jonli so‘zlashuv tilidan muallif tomonidan to‘plangan, ammo hozirgi kunga qadar nashr etilgan o‘zbek adabiy til va dialektologik lug‘atlarida o‘z aksini topmagan yoki tizimli tadqiq etilmagan 8 ta o‘ziga xos frazeologik birlik lingvistik tahlilga tortiladi. Maqolada har bir frazemaning etimologik asoslari, xalq mentaliteti va turmush tarzi bilan bog‘liqligi, kontekstual ma‘nolari hamda o‘g‘uz lahjasiga xos xususiyatlari atroflicha yoritilgan.

Kalit so‘zlar: dialektologiya, Xorazm shevasi, o‘g‘uz lahjasi, frazeologizm, dialektal lug‘at, lingvokulturologiya, xalq donoligi.

Аннотация. В данной статье подвергаются лингвистическому анализу 8 уникальных фразеологических единиц, собранных автором непосредственно из живой разговорной речи Хорезмской области, которые до настоящего времени не нашли отражения или не были систематически изучены в опубликованных узбекских диалектологических словарях. В работе подробно освещаются этимологические основы каждой фраземы, их неразрывная связь с народным менталитетом и образом жизни, контекстуальные значения, а также специфические черты, характерные для огузского диалекта, занимающего центральное место в тюркском мифо-историческом сознании. Эти фразеологизмы рассматриваются как элементы, которые кодируют ценности и противоречия своей культурной среды, являясь при этом хранилищем коллективных ценностей и социальных идеалов народа.

Ключевые слова: диалектология, хорезмский диалект, огузское наречие, фразеологизм, диалектный словарь, лингвокультурология, народная мудрость.

Annotation. This article presents a linguistic analysis of 8 unique phraseological units collected by the author from the live spoken language of the Khorezm region, which have neither been reflected nor systematically studied in Uzbek dialectological dictionaries published to date. The article provides a detailed exploration of the etymological foundations of each phraseological unit, its connection to folk mentality and lifestyle, its contextual meanings, and features specific to the Oghuz dialect, which is central to Turkic mytho-historical consciousness. These units function as a cultural repository of collective values and social ideals. The study demonstrates how each phrasal unit encodes the values and tensions of its cultural milieu, reflecting the unique socio-historical context of the region.

Key words: dialectology, Khorezm dialect, Oghuz dialect, phraseologism, dialectal dictionary, linguoculturology, folk wisdom.



KIRISH

O‘zbek tili dialektal tizimida Xorazm shevalari o‘zining fonetik arxaizmlari, boy leksikasi va o‘ziga xos frazeologik qatlamlari bilan alohida o‘rin tutadi. Professor F. Abdullayev va boshqa yetakchi o‘zbek dialektologlarining ishlarida vo‘ha shevalarining umumiy lisoniy manzarasi chizib berilgan bo‘lsa-da, jonli tilda yashayotgan yuzlab frazemalar hamon akademik lug‘atlardan tashqarida qolmoqda.

Frazeologizmlar tilning milliy-madaniy va bevosita xalqning hududiy xususiyatlari bilan bog‘liq qismi hisoblanadi. Chunki ularda xalqning asriy tajribasi, yumori, satyrasi va dunyoqarashi muhrlanadi. Tadqiqot ishimizda Xorazm vohasining o‘g‘uz guruhiga mansub shevalarida faol qo‘llanadigan, biroq mavjud dialektologik lug‘atlarda qayd etilmagan unikal frazema va iboralarning ilmiy-nazariy tahlili taqdim etiladi.

To‘plangan materiallar tahlili shuni ko‘rsatadiki, Xorazm shevasidagi frazemalar inson tabiati, jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlar va hududiy realiyalarni o‘ta yorqin va ekspressiv bo‘yoqlarda ifodalaydi. Quyida ajratib olingan frazemaning har biriga alohida to‘xtalib o‘tamiz.

“Po‘ssiq o‘g‘risi”

Ma‘nosi: Qo‘lidan ish kelmaydigan, o‘ta loqayd, layoqatsiz, o‘zgalar oshiga mehnatsiz sherik bo‘lishni xush ko‘radigan va irodasiz odam.

Lingvistik tahlili: Adabiy tildagi “po‘ssiq o‘g‘risi” yoki “qo‘li kalta” kabi iboralar ko‘proq omadsiz yoki uquvsiz kishilarga nisbatan qo‘llanilsa, Xorazm shevasidagi “po‘ssiq o‘g‘risi” iborasi o‘zining o‘ta yuqori satirik bo‘yog‘i bilan ajralib turadi. Bu yerdagi “po‘ssiq” so‘zi Xorazm shevalarida xamirli taomga nisbatan qo‘llanilib, odatda non xamiriga o‘xshab achitqi solib yumshoq qorilgan, zuvalasi dumaloq shaklda yoyilib qattiq qizitilgan yog‘da qovurilgan g‘ovak, shaklini to‘liq aylana shaklida ushlay olmaydigan, kundalik hayotda biron yomon tush ko‘rganda yoki falokat sodir bo‘lganda toq sonda pishiriladigan, hamda janoza marosimi yakunida ishtirokchilar ‘tuz tatish’ uchun bir chimdim olib tatib ko‘radigan bog‘irsoq turiga nisbatan ishlatiladi. Frazemaning tagma‘nosida shunday piching yotadi: ushbu shaxs shunchalik bo‘sh va uquvsizki, u hatto biron falokat yoki musibatda ham faqat qorin g‘amni yeydigan insonning jismoniy va/yoki ruhiy bo‘shashganligini qoralash uchun ishlatiladi.

“Baloq(ishton) biti”

Ma‘nosi: O‘ta mijg‘ov, xira, odamning asabiga tegadigan darajada yopishib oluvchi shaxs.

Lingvistik tahlili: Ushbu ibora o‘ta vulgar (qo‘pol) qatlamga mansub bo‘lgani sababli ham shu paytgacha akademik lug‘atlardan chetda qolib kelgan. Bunda



“baloq” beldan pastga kiyiladigan ust kiyimning oyoqlarni qoplab turadigan eng pastki qismi, ikki oyoq uchun ikki baloqdan iborat bo’ladi. Biroq, lingvokulturologik nuqtai nazardan u insonning salbiy xarakterini ko’rsatuvchi eng ta’sirchan iboralardan biridir. Bu yerda kishining xiraligi va jonli muloqotda odamni toliqtirib yuborishi biologik parazit (bit) timsoli orqali metaforizatsiya qilingan. Frazema o’zining ekspressivligi jihatidan adabiy tildagi “g’ofil”, “tanbal”, “mijg’ov”, “elimshash” kabi so’zlardan bir necha barobar kuchliroq emotsional ta’sir kuchiga ega.

“Dishimni teyinlan darladim”

Ma’nosi: Nihoyatda qattiq qo’rqdim, vahimaga tushdim yoki o’zimni zo’rg’a ushlab turdim.

Lingvistik tahlili: Bu iborada Xorazm o’g’uz lahjasining sof fonetik qonuniyatlari ko’rinadi: “dish” – tish, “teyi” – tagi, “darladim” – terladim. Lisoniy jihatdan yondashsak, tishning tagidan ter chiqishi tabiat va biologiya qonunlariga mutloq ziddir. Demak, ushbu frazema negizida kuchli giperbola (mubolag’a) yotadi. Inson shunday ekstremal ruhiy va psixologik holatga (qo’rquvga) tushganki, hayotda sodir bo’lishi mumkin bo’lmagan hodisa uning vujudida aks etgandek tuyuladi. Adabiy tildagi “yuragim yorildi”, “o’ takam yorildi” yoki “sovuq ter bosdi” iboralarining dialektal muqobili hisoblanadi.

“Ozonacha choqqi dastalab chiqdim”

Ma’nosi: Tong otguncha g’am-g’ussa bilan uxlo olmay chiqdim, tuni bilan ko’z yosh to’kdim.

Lingvistik tahlili: Frazema tarkibidagi “ozonacha” so’zi – “azongacha, tonggacha” degan ma’noni anglatadi. “Choqqi” yoki “choq” so’zlari ma’lum bir hududlarda yig’i, hasrat ma’nolarini beradi, lekin Xorazm she’valarida bu so’z yig’ma dastakli, odatda erkaklar cho’natigida olib yuradigan, o’tkir tig’li pichoqqa nisbatan ishlatiladi. “Dastalab chiqdim” birikmasi esa g’am va tashvishlarning bir dasta bo’lib, inson qalbiga og’irlik qilganini tasvirlaydi. Bu ibora asosan ayollar nutqida yoki lirik-falsafiy ohangda, boshga tushgan og’ir musibat yoki o’ylarni ifodalash uchun qo’llaniladi.

“To’ppimni aldima qo’yib galdim”

Ma’nosi: Tavakkal qilib keldim, hamma narsani ko’zdan kechirib, qat’iy bir qarorga kelib keldim.

Lingvistik tahlili: Adabiy o’zbek tilida va Xorazm shevalarida “do’ppini oldiga qo’yib o’ylash” frazemasi mavjud bo’lib, u chuqur fikrlash, mushohada yuritish ma’nosini anglatadi. Biroq Xorazm shevasidagi “to’ppimni aldima qo’yib galdim” (do’ppimni oldimga qo’yib keldim) varianti ma’no jihatidan transformatsiyaga



uchragan. Bu yerda gap nafaqat o‘ylash, balki o‘sha o‘ylash jarayonining yakuni – qat’iy, ortga qaytmas qaror qabul qilinganligi haqida ketmoqda. Do‘ppi – erkaklik, or-nomus va shaxsiyat ramzi sifatida oldinga qo‘yiladi va bu qadam o‘ta jiddiy ekanligi ta’kidlanadi.

“Xivolini boyini, xonqolini kambog‘olini bilib bo‘lmidi”

Ma’nosi: Tashqi ko‘rinishga qarab odamlarga, ularning imkoniyatlariga aslo baho berib bo‘lmaydi.

Lingvistik tahlili: Ushbu ibora asl Xorazmga xos lingvokulturologik va etnografik xarakterga ega. Xiva – qadimiy shahar, xonlik markazi bo‘lgani sababli, u yerdagi boylar o‘z boyliklarini ko‘z-ko‘z qilmaslikka, soliqlardan yoki xonning g‘azabidan cho‘chib, o‘zlarini kamtar tutishga odatlanishgan. Xonqa esa – azaldan mehnatkash dehqonlar, hunarmandlar va tadbirkorlar yurti bo‘lib, u yerdagi "kambag‘al" hisoblangan odam ham o‘z mehnati bilan uyi to‘q, sharoiti obod yashagan. Bu tarixiy va ijtimoiy reallik xalq tilida umumlashib, kishining ichki salohiyati va boyligi tashqi qobiqqa mos kelmasligi mumkinligi haqidagi falsafiy xulosaga aylangan.

“Cholo eshitib chotmo yormo”

Ma’nosi: Gapni chala-yarim eshitib, asossiz va noto‘g‘ri xulosalar chiqarib, gap tarqatib yurma.

Lingvistik tahlili: Frazema tarkibida o‘g‘uz lahjasiga xos unlilar uyg‘unligi (singarmonizm) va o‘zgarishlari yaqqol ko‘rinadi: “Cholo” (chala), “chotmo” (chatma – uydirma gap, ikki tarafga ajralgan shoxli yog‘och, o‘tin ma’nosida). “Yormo” so‘zi esa bu o‘rinda yorish, tarqatish, ochib tashlash ma’nosini beradi. Ushbu frazema xalq orasida g‘iybat, uydirma va yolg‘on ma’lumotlarning tarqalishini oldini olishga qaratilgan didaktik mazmundagi o‘git xarakteriga ega.

“Deri do‘nimo sig‘modim”

Ma’nosi: O‘ta qattiq g‘azablandim, jaxlim chiqdi, o‘zimni tutolmay qolish darajasiga yetdim.

Lingvistik tahlili: “Deri” – teri, “do‘n” – ustki kiyim, to‘n ma’nosida. Adabiy tildagi “terisiga sig‘may ketdi” iborasi odatda ko‘proq ijobiy emotsiya – o‘ta xursand bo‘lish, quvonish holatlari uchun ishlatiladi. Biroq Xorazm shevasidagi ushbu muqobil variant asosan salbiy va agressiv holatni – insonning ichki asabiy portlashini ifodalash uchun xizmat qiladi. Insonning g‘azabi shu qadar kuchliki, unga nafaqat o‘zining jismoniy terisi, balki ustidagi kiyimi ya’ni to‘ni (“do‘ni”) ham torlik qilib qolgandek tasvirlanadi.



XULOSA

Xorazm viloyati jonli soʻzlashuv tilidan saralab olingan betakror frazeologik birliklar (“poʻssiq oʻgʻrisi”, “balogʻ biti”, “dishimni teyinlan darladim”, “ozonacha choqqi dastalab chiqdim”, “toʻppimni aldima qoʻyib galdim”, “xivolini boyini, xonqolini kambogʻolini bilib boʻlmidi”, “cholo eshitib chotmo yormo”, “deri doʻnimo sigʻmodim”) ustida olib borilgan tahlillar shuni koʻrsatadiki, ushbu iboralar voha aholisining uzoq asrlik ijtimoiy tajribasi, hududiy munosabatlari va betakror xalq yumorini aks ettiruvchi lingvokulturologik kodlardir. Mazkur frazemalarning hozirgi kunga qadar akademik dialektologik lugʻatlarda toʻliq fiksatsiya qilinmaganligi oʻzbek leksikografiyasida muayyan boʻshliqlar mavjudligidan dalolat beradi.

Globalashuv va adabiy til taʼsiri natijasida yoshlar nutqidan tushib qolayotgan ushbu unikal xalq iboralarini saqlab qolish uchun quyidagi tizimli yechimlarni amalga oshirish zarur:

Lugʻatlarga kirmay qolgan hududiy frazemalarni jamlovchi va ularning audio variantlarini oʻz ichiga oluvchi “Oʻzbek tili dialektal frazemalarining elektron korpusi” yaʼni, raqamli platformalar zarur.

Oʻzbekiston Fanlar akademiyasi va oliy taʼlim muassasalari tomonidan nashr etiladigan “Oʻzbek shevalari leksikasi” lugʻatlarining yangi nashrlariga ushbu frazemaning variantdorligi va emotsional diapazonini toʻliq kiritish uchun lugʻatchilikni rivojlantirish zarur.

Filologiya fakultetlari talabalarini hududiy dala-tadqiqot ishlariga jalb etish orqali unutilayotgan iboralarni yozib olish tizimini jadallashtirish uchun ilmiy ekspeditsiyalar uyushtirish.

Xorazm shevasining frazeologik salohiyatini fiksatsiya qilish va kelgusi avlodlarga ilmiy asosda yetkazish milliy madaniyatimiz va tilimizga eʼtiborning asosiy maqsadidir. Salbiy maʼnodagi frazemalar tadqiqi til tizimini toʻliq tushunish, semantik-pragmatik transformatsiya, etnolingvistik-kulturologik xususiyat, ijtimoiy-psixologik funksiyalar va akademik-tadqiqot metodologiyasi uchun fundamental ahamiyatga ega. Ular tilning ekspressiv-resursini, madaniyat-til oʻzaro taʼsiri va kommunikatsiya pragmatikasini toʻliq oʻrganish imkonini beradi.

Foydalangan adabiyotlar roʻyxati:

1. Abdullayev F. Xorazm shevalari. – Toshkent: Fan, 1961.
2. Mirzayev M. Oʻzbek tili dialektologiyasi. – Toshkent, 1978.
3. Oʻzbek shevalari leksikasi (koʻp jildlik). – Toshkent: Fan, 1966-1990.
4. Muallifning shaxsiy dala-tadqiqot materiallari va yozib olgan xalq frazemalari toʻplami, 2026.